



O‘ZBEK MUSIQASHUNOSLIGIDA MAQOMLARNING ETNIK TAVSIFI. ETNOGRAF V.A.USPENSKIY IJODI

Muallif: Abduazimova Dilorom ¹

Affilyatsiya: O‘zDSMI, “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası o‘qıtuvchısı ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14377150>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbek musiqashunosligida maqomlarning etnik tavsifi hamda kompozitor, etnograf, pedagog, musiqa jamoat arbobi, san‘atshunoslik fanlari doktori, O‘rta Osiyo folkloristikasi asoschisi bo‘lmish V.A.Uspenskiy hayoti va ijodi, etnografiya sohasida olib borgan tadqiqotlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Etnografiya, musiqashunos, kompozitor, nota, maqom, ijro, ijod

Etnomadaniyat – sotsiologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik, falsafa, etnopsixologiya singari qator fanlar tomonidan o‘rganiladigan har bir xalqning muayyan tarixiy jarayonda shakllanadigan madaniyati. Etnomadaniyat umuminsoniy qadriyatlar, madaniy va axloqiy an‘analarning bitmas-tuganmas manbaidir.

Har bir xalq yoki elat, avvalo, tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib turadi. O‘zbek xalqi ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, juda ko‘p milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo‘ldi. O‘tmish ajdodlarimiz an‘analari, qadriyatlari asrdan-asrga, avloddan-avlodga saqlanib, taraqqiy topib keldi. Xususan, milliy-madaniy xususiyatlarimizning saqlanib qolishida xalq og‘zaki badiiy ijodining roli beqiyos bo‘ldi. Jumladan, maqomlarimizning saqlanib, bizgacha yetib kelishida ustoz-shogird an‘anasining o‘rni beqiyosdir. Ushbu an‘ana amaliyotda qo‘llanilishi natijasida maqomlarimiz ustozdan shogirdga og‘zaki tarzda o‘tib, rivojlanib kelgan.

Shuni aytib o‘tishimiz lozimki, Chexiyalik harbiy kapelmeyster va kompozitor Frantisek Vaplav Leysek umrining salmoqli qismini /1878-1935/ O‘zbekistonda yashab, milliy kuylarimizni to‘plash borasida barakali ijod qildi. Chunonchi, Leysek 200 ga yaqin O‘rta Osiyo xalqlari musiqasi namunalarini yozuvlarda jamlagan bo‘lib, uni Butun Rossiya ko‘rgazmasiga taqdim etganligi ma‘lum. Bundan tashqari u “Rajabiy”, “Boljuvon”, “Munojot” singari el orasida mashhur kuylarni damli cholg‘ular orkestriga qayta ishlash amaliyotini keng qo‘llaydi. Shu maqsadda 1890-yili 30 ga yaqin xalq qo‘shiq va kuylari asosida “Osiyocha poppuri”, 1923-1924-yili esa “O‘zbek qo‘shiqlaridan poppuri” asarlarini yaratdi. F.Leysekning “Osiyocha poppuri”si Chexiya va Avstriya kabi xorijiy Yevropa mamlakatlarida ham ijro etilgan edi.

O‘zbek musiqa merosini to‘plash va yozib borish ishlari XX asrda muntazam va izchil amalga oshirib borildi. Bunda dastlab 1919 yili Turkiston Respublikasi Xalq Maorif Komissarligining San‘at bo‘limi huzurida tashkil etilgan Badiiy-etnografik komissiyasi

e'tiborli faoliyat ko'rsatdi. Komissiya a'zolari – G.Zafariy, V.A.Uspenskiy, N.Mironov va E.Melngaylislar o'z oldilariga O'rta Osiyo xalqlari musiqa ijodini atroflicha o'rganishni, uni to'plab nashr etishni va boshqa ilmiy-ijodiy vazifalarni maqsad qilib qo'ydilar.

Bu boradagi dastlabki muhim ishlar mazkur komissiyaning rahbari, Turkistonga 1917-yili kelgan rus kompozitori va musiqiy etnografi V.A.Uspenskiy /1879-1949/ tomonidan amalga oshirildi.

O'zbek musiqa merosini to'plash va yozib borish ishlari XX asrda muntazam va izchil amalga oshirib borildi. Bunda dastlab 1919 yili Turkiston Respublikasi Xalq Maorif Komissarligining San'at bo'limi huzurida tashkil etilgan Badiiy-etnografik komissiyasi e'tiborli faoliyat ko'rsatdi. Komissiya a'zolari – G.Zafariy, V.A.Uspenskiy, N.Mironov va E.Melngaylislar o'z oldilariga O'rta Osiyo xalqlari musiqa ijodini atroflicha o'rganishni, uni to'plab nashr etishni va boshqa ilmiy-ijodiy vazifalarni maqsad qilib qo'ydilar.[2, B.6.]

O'zbek musiqasi etnografiya sohasida o'zining salmoqli mehnatlari bilan nom qoldirgan san'atshunoslik fanlari doktori, O'zbekiston va Turkmaniston xalq artisti, etnograf olim, kompozitor, dirijor, ajoyib murabbiy Viktor Aleksandrovich Uspenskiy 30-yil charchamasdan o'zbek va turkman xalqlarining musiqiy boyligi bo'lgan xalq ijodiyotini chuqur o'rganib, ularni notaga olgan holda hozirgacha saqlanib qolishida o'zining ulkan hissasini qo'shgan etnograf olim hisoblanadi. V.A.Uspenskiy 1879-yili 31-avgustda Rossiyaning Kaluga shahrida dunyoga keladi. V.A.Uspenskiy tug'ilganidan ko'p vaqt o'tmay, uning oilasi Qizg'izistonning O'sh shahriga ko'chib o'tishadi. Uning bolalik chog'lari shu yerda ya'ni O'sh shahrida o'tadi. Otasi unga skripkadan, onasi esa fortepianodan saboq berishadi. Keyinchalik esa, V.A.Uspenskiy Gimnaziyani bitirganidan so'ng, Orenburg Harbiy kadet korpusiga o'qishga berishadi. Bu yerda u o'qiyotgan vaqtlarida ham musiqa bilan shug'ullanishni davom ettiradi. Kadet korpusidagi harbiy simfonik orkestrida u kontrabass va arfa sozlarini chaladi. 1898-yil Kadet korpusini tamomlaydi va Kavkazdagi Dragun Shimol polkiga bo'lim komandiri etib tayinlanadi. Mazkur polkdagi harbiy xizmat undagi musiqaga bo'lgan havasni so'ndira olmaydi va musiqa amaliyoti va nazariyasi bilan astoydil shug'ullanadi.

V.A.Uspenskiy harbiy xizmatdan iste'foga chiqadi va 1908-yilda Peterburg konservatoriyasiga o'qishga kiradi. Kompozitsiya bo'yicha professor A.Lyadov sinfida saboq oladi. Peterburg shahrining doimo salqin havosi uning sog'ligiga ta'sir qilib, oddiy shamollashdan o'pkaga ham o'tib boradi. Uzoq vaqt davolanib chiqqanidan keyin vrachlarning maslahatiga ko'ra o'qishini vaqtincha to'xtatib, 1910-yilda Shvetsariyaning Davos va Germaniyaning Leypsig shaharlarida davolanib qaytadi va qaytib o'qishini davom ettiradi.

1913-yil Peterburg Konservatoriyasini tamomlab, "Erkin san'atkor" diplomini oladi. Bir yil davomida ijod bilan shug'ullanadi. 1914-yil Birinchi jahon urushi boshlanadi va u armiya safiga chaqiriladi va u yerda 1917-yilgacha xizmat qiladi. 1917-yil fevral inqilobidan so'ng, V.A.Uspenskiy Petrograd konservatoriyasi qaroriga binoan konservatoriya direktori A.K.Glazunov tomonidan qo'l qo'yilgan buyrug'iga asosan Turkiston Respublikasiga "o'sha davrdagi atama" xalq musiqasi va qo'shiqlarini o'rganish, yig'ib to'plash uchun ishga jo'natiladi. O'sha davrlarda Turkiston o'lkasida xalq san'atini faol rivojlantirish uchun musiqali etnografik komissiya tuziladi. 1919-yili V.A.Uspenskiy tashabbusi bilan Toshkentdagi Baland masjid, Rohat bog'ida xalq konservatoriyasining bo'limi ochiladi. O'sha yerda uning pedagogik faoliyati boshlanadi.

V.A.Uspenskiy ko'p vaqtini etnografiya ishlariga bag'ishlaydi. Bir necha yillar davomida O'rta Osiyoda yashovchi xalqlarning qo'shiqlarini notalashtiradi. O'rta Osiyo xalqlari musiqa folklorini o'rganish, targ'ibot qilish uchun ilmiy markaz tashkil etilib, unga Uspenskiy rahbar etib tayinlanadi. U 1923-yili Buxoroga borib Shashmaqom bilimdonlari Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodovlar ijrosida Shashmaqomni notaga yozib olishga muvassar bo'ladi.

V.A.Uspenskiy 1925, 1927, 1929-yillarda Turkmaniston taklifiga binoan folklor ekspeditsiyalarini tashkil etib, Turkman xalq musiqasini notaga yozib oladi. V.A.Uspenskiy xalq qo'shiqlari va kuylarini yozib olish birga ularni qayta ishladi, musiqa san'atining turli shakl va janrlarida rang-barang asarlar ham yaratadi. Xalq ohanglarini notalashtirish bir qancha mehnatni talab etardi. Bu ishlarda unga Buxoro xalq hofizlari, musiqachilar Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonovlar, Samarqandlik Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Madrayim Yoqubovlar o'zbek xalqining qimmatli musiqiy merosini yozib qoldirishda o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar. V.A.Uspenskiy Farg'ona vodiysida keng tarqalgan katta ashulalarni ham birinchi bo'lib notaga olgan. Katta ashulalar musiqa jo'rligisiz ijro etilib, ashulachidan katta mahorat talab etadi. Bu ashulalarni o'zbek xalqi juda sevib tinglashar edi. Katta ashulalar ijrochilari Akbar Haydarov, Muhammadjon Do'stmuhammedov va Yunus Rajabiyalar bo'lganlar. Keyinchalik yangi ishga qo'l urgan V.A.Uspenskiy Shashmaqomning ashula qismini Shonazar Soxibovdan yozib oladi. Shonazar Soxibov Domla Halim Ibodovning farzandi edi. "Rost", "Talqini Ushshoq", "Nasri Ushshoq", "Sabo" shular jumlasidandir.

Bu ishlarni u oxirigacha yetkaza olmadi. U kishi faqatgina o'zining ijodida maqomlardan foydalana olgan. O'zbek milliy orkestriga moslashtirib yozib bergan. Keyinchalik V.A.Uspenskiyning ijodida fortepiano ovoz uchun bir qancha qo'shiqlar bilan rang-barang asarlar ham yaraldi. Ikkinchi jaxon urushida u samarali ijod qiladi. Ya'ni, xor uchun yozilgan "O'zbekiston", "Pahlavonlar jangga o'tlaning", "Yur botirlar" kabi qo'shiqlarini misol qilishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda V.A.Uspenskiy quyidagi to'plam va maqolalar muallifi hamdir. "Shashmaqom", "Maktab bolalari qo'shig'i", "Farg'ona qo'shiqlari", "Buxoro qo'shiqlari va maqom parchalari". "Katta ashula", "O'zbek klassik musiqasi" va boshqalar. Viktor Uspenskiy ijodida G.Mushel bilan hamkorlikda yaratilgan "Farhod va Shirin" musiqali drammasi alohida o'rin tutadi. Mazkur asar musiqali drammalarni yaratishda ko'p ovozli musiqaning shakllaridan foydalanishga asos soldi. Musiqa etnografi, kompozitor V.A.Uspenskiy 1929-yili Turkmaniston xalq artisti, 1937-yili O'zbek xalq artisti faxriy unvoni, 1943-yili San'atshunoslik doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ladi.[6, B.122;]

Toshkentdagi maxsus musiqa internat maktabi va musiqa litseyiga V.A.Uspenskiy nomi berilgan.

Umumiy olib aytadigan bo'lsak, insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy jarayon davomida etnomadaniyatlar orasida an'anaviy madaniyatimiz alohida ahamiyatga ega. An'anaviy madaniyat deyilganda biz turli etnos namoyondalari, ya'ni bir necha avlod vakillari tomonidan asrlar mobaynida yig'ilgan va bir avlodning o'rgatilishi natijasida unutilib ketmagan urf-odatlarini tushunamiz.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbek maqom san'atining rivojlanishi, xalqimizning etnomilliy o'zligini anglash hissining kuchayishi, milliy qadriyatlar, tarixiy

an'analarga bo'lgan e'tiborning ortishi natijasida o'zbek xalqi etnografiyasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uzoq yillar mobaynida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan, to hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan maqomlarimiz jamiyatimiz hayotida muhim o'rin egallagan bo'lib, maqomlar etnografiyasini o'rganish, uni targ'ib qilib yoshlar qalbiga chuqur singdirish biz yosh avlodning muhim vazifamiz sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ashirov A, Atadjanov Sh. Etnologiya. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008.

Ibrohimov O.A. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism. Toshkent-1994-yil.

Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004.

Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San'at, 2006.

Yu.Rajabiy. Shashmaqom (O'zbek maqomlari). Toshkent-2007.

